

TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Saydxodjayeva Nigoraxon Ibaydullaevna

University of economics and pedagogy NOTM

"Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi (Andijon)

saidhodjaevanigorahon@gmail.com

+998994771808

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik tushunchasi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini boshqarish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning eng avvalo iqtisodiy sohada, qolaversa, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ahamiyati hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar haqida bayon etilgan. Shu bilan birga, biznes jarayonida o'z maqsadi yo'lida faoliyat yurituvchi subyekt sifatida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish uchun mavjud to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llari yuzasidan xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkor, zabt etuvchi, tavakkalchilikka tayyor turish qobiliyatiga ega bo'lgan, ma'naviy erkin, g'oyalarga boy, shijoatli, o'z so'zini o'tkazadigan, tashkilotchi, birgalikda bajariladigan ishga ko'plab kishilarni uyushtira oladigan, foyda olish, mulkchilik shakllarini ko'paytirish, sotish, taqsimlash, mulkiy tengsizlik, bandlikni ta'minlash, kichik biznes, ish bilan ta'minlab, ishsizlik darajasini kamaytirish, foyda olish, iqtisodiy faoliyat.

I.KIRISH

Tadbirkor, eng avvalo iqtisodiy sohada namoyon bo'lsa ham, aslida u ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo'libgina emas, balki ijtimoiy- psixologik voqelikdir. Keng ma'noda tadbirkorlik holati – bu kishining tashabbuskorligi, novatorligi, manfaatdorligi, ishga yangicha yondoshuvdir. Shuning uchun tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishida uning to'g'ri boshqarilishi muhim va rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "biznes", "tadbirkorlik" tushunchalari turlicha talqin qilinadi. Bizning fikrimizcha, "Biznes tushunchasi – o'zbek tilida "ish", "faoliyat" ma'nolarini anglatib, foydali mehnat jarayonini aks ettiradi. "Biznesmen" tushunchasi yuqoridagi ma'noga muvofiq, foydali ish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorni bildiradi. Demak, "biznesmen" va "tadbirkor" tushunchasi sinonim tushunchalar bo'lib, o'z maqsadini amalga oshirish uchun foydali ish bilan shug'ullanuvchi ishbilarmonni ifodalaydi. Bizning tushunchamizga ko'ra, biznes-jarayon va tadbirkor shu jarayon sub'yekti hisoblanib, o'z maqsadi yo'lida faoliyat yurituvchi sub'yekt hisoblanadi.

Tadbirkorlik tushunchasi XVI asrdan boshlab iqtisodchilar, ruhshunoslar, siyosatshunoslar fikrini o'ziga jalb eta boshladi. J.B.Sey, A.Marshall, V.Zombart, Y.Shumpeter, F.Noytlar tadbirkorlik ilmining asoschilari hisoblanadi. XVIII asrning boshida iqtisodiy nazariyaga birinchi bo'lib tadbirkorlik tushunchasini kiritgan ingliz iqtisodchisi R. Kantil'on "Tadbirkor deganda, birovlarining tovarlarini ma'lum bo'lgan baholarda sotib olib, o'zinikini esa o'ziga ham ma'lum bo'lmagan baholarda sotish orqali oldindan belgilanmagan miqdorda daromad oluvchi kishining faoliyatini tushungan. Bu yerda- tavakkalchilik tadbirkorning eng asosiy ko'rsatkichi deb

hisoblangan⁶². XVIII asrning oxiri – XIX asrning boshlarida frantsuz iqtisodchisi Jan Batist Sey tadbirkorni vositachi, ishlab chiqarish omillarining koordinatori, tajriba va bilim egasi deb, ta'riflaydi⁶³.

Nemis iqtisodchisi V. Zombart (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida) ta'kidlashicha, tadbirkor - bu zabt etuvchi, tavakkalchilikka tayyor turish qobiliyatiga ega bo'lgan, ma'naviy erkin, g'oyalarga boy, shijoatli va o'z so'zini o'tkazadigan, tashkilotchi, birgalikda bajariladigan ishga ko'plab kishilarni uyushtira oladigan shaxsdir⁶⁴.

Tadbirkorlik nazariyasiga muhim hissa qo'shgan Avstriya iqtisodchisi Y. Shumpeter o'zining 1912 yilda yozgan "Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi" kitobida tadbirkorni ishlab chiqarish omillaridan foydalanishning yangi kombinatsiyalarini amalga oshiradigan va shu bilan iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydigan kishi⁶⁵ deb aytadi.

Abu Ali ibn Sino shunday yozgan edi: «Odamlarning mulkiy tengsizligi, vazifasining bir xil emasligi, o'zaro farqlari, inson ijtimoiy faoliyatining sababidir»⁶⁶.

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori muhim o'rin tutadi. Ular iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli, ushbu sohani rivojlantirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish zarur.

II.METODLAR

Ushbu tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasida biznes va tadbirkorlik tushunchasi, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish yo'llari, ahamiyati va sohani rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolarni o'rganish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Tahliliy metod – mamlakatimiz va xorijda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'llari bo'yicha ilmiy-amaliy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari o'rganildi.

2. Taqqoslash metodi – O'zbekiston Respublikasining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlari iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasi bilan solishtirildi hamda samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

III.NATIJALAR

Mamlakatimizda Yangi O'zbekiston kontsepsiyasi, strategik maqsadi– "inson qadri" masalasi bo'lganligi sababli bugungi taraqqiyotdan kelib chiqib, o'z

⁶² Jevons W. S. Richard Cantillon and the Nationality of Political Economy // Contemporary Review. Oxford, United Kingdom: The Contemporary Review Company Limited, 1881. P. 333– 360.

⁶³ Steiner P. La théorie de l'entrepreneur chez Jean-Baptiste Say et la tradition Cantillon-Knight. L'Actualité économique. 1997;73(4) décembre, www.erudit.org [Accessed: May 22, 2021]

⁶⁴ В.Зомбарт "Буржуа". М.:Наука, 1994.

⁶⁵ Шумпетер Йозеф Алоис (1883-1954). Теория экономического развития. Дата обращения: 18 декабря 2021. Архивировано из оригинала 26 декабря 2022 года.

⁶⁶ М.М.Хайруллаев, Х.Алиқулов. О'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – Т., 1995. – В. 68.

tushunchamizda o'rgangan iqtisodchi olimlarning ta'riflaridan foydalanib, bu kategoriyalarda mujassam bo'lishi lozim bo'lgan xususiyatlarni keltiramiz:

- avvalo, biznes va tadbirkorlik – bu foyda olish uchun yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyatdir. Demak, bu faoliyat sotsial mazmunga ega bo'lib, bandlikka yo'l ochib, ishsizlikni yo'qotadi;

- ikkinchidan, bu kategoriyalarda zamon, muhit masalalari ifodasi sifatida innovatsiya va raqobat bir-birini taqozo qiladi. Demak, zamon bilan hamnafaslik bir-birini to'ldiradi;

- bozorni to'g'ri talqin qilish, bozordagi talab va taklifni o'rganish, buning asosida, innovatsion yo'nalishlarni o'rganish muhim bo'ladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorini ahamiyati shundaki, u nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim omili, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy sektor hisoblanadi. Quyida bu sektorning asosiy ahamiyatli jihatlari keltirilgan:

Bandlikni ta'minlash - kichik bizneslar aholining katta qismini ish bilan ta'minlab, ishsizlik darajasini kamaytiradi. Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini oshirishda bu sektorning roli katta. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda band bo'lgan aholining qariyb 75 foizi aynan kichik biznesda faoliyat yuritadi.

Iqtisodiy barqarorlik va diversifikatsiya - kichik va o'rta biznes tarmoqlari iqtisodiyotning bir nechta sohalarida faoliyat yuritadi. Bu esa iqtisodiy diversifikatsiyani (ya'ni, faqat bir necha tarmoqqa tayanib qolmaslik) ta'minlab, iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Hududiy rivojlanishga hissa - kichik bizneslar mamlakatning chekka va qishloq hududlarida ham faol bo'lib, u yerda yangi ish o'rinlari yaratadi va infratuzilmani rivojlantirishga hissa qo'shadi. Bu hududiy tengsizlikni kamaytiradi.

Raqobat muhitini kuchaytiradi - kichik bizneslar orqali yangi g'oya va mahsulotlar paydo bo'ladi. Ular yirik kompaniyalarga raqobatchi bo'lib, sifatli mahsulotlar va xizmatlar bozorini shakllantiradi.

Byudjetga soliq tushumlari - ushbu sektor davlat byudjetiga salmoqli miqdorda soliq tushumlarini keltiradi. Soliq bazasining kengayishi esa davlatning iqtisodiy imkoniyatlarini oshiradi.

Tadbirkorlik madaniyatining shakllanishi - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali aholining tashabbuskorligi va iqtisodiy mas'uliyati oshadi. Bu esa bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zini-o'zi boshqarish madaniyatini rivojlantiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Ular yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobatni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Masalan, Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan quyidagi omillarni rivojlantirishga olib kelmoqda:

birinchidan: aholining daromadomili sifatida hayot darajasiniyuksalishiga olib keladi;

ikkinchidan: ish bilan bandlik omili sifatida ishsizlikni kamaytirishga olib keladi;

uchinchidan: mahsulot va xizmat omili sifatida diversifikatsiyalashga olib keladi. Bundan tashqari, kichik biznes ishlab chiqaruvchilarida yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan ishlab chiqarish xarajatlarini tejash imkoniyatlari yuqori, shuning uchun, kichik biznes va tadbirkorlikda boshqaruvni to'g'ri tashkil qilinishi bozorni arzon va sifatli mahsulot bilan to'ldirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida, bozorda raqobat muhitini shakllantirib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksportbop va import o'rni bosuvchi tovarlar darajasiga yetishini ta'minlaydi. Bu bilan xalqimiz uchun arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish orqali ularni davlat va jamiyatdan rozi qilish imkoniyati tug'iladi.

2023 yilda respublikada tadbirkorlik, uning kichik biznes shakli bilan band bo'lgan korxonalar soni 411 mingdan oshdi. Ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 66,7 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini kengroq yoritish maqsadida unga tasir qiluvchi quyidagi omillarni yoritib berishga harakat qilamiz:

Moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash kichik biznes uchun eng muhim rivojlanish omillaridan biridir.

Imtiyozli kreditlar va grantlar: Hozirgi vaqtda Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi orqali kafolatlangan kreditlar berilmoqda.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik (Masalan: Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki) orqali kichik tadbirkorlarga mikromoliyalashtirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Startaplar uchun moliyaviy texnologiyalar (fintech) va venchur investitsiyalar bozorini rivojlantirish ham dolzarb yo'nalishdir.

Raqamli transformatsiya va IT infratuzilmani rivojlantirish. Kichik biznes raqamli texnologiyalardan foydalansa, mahsuldorlik va samaradorlik sezilarli darajada oshadi.

Elektron tijorat platformalari: Mahsulotlar va xizmatlarni internet orqali sotish imkoniyatini yaratadi.

CRM, ERP tizimlari: Buxgalteriya, mijozlar bilan munosabatlar va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladi.

Davlat "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" orqali tadbirkorlik subyektlari uchun ko'plab xizmatlarni onlayn taqdim etmoqda.

Infratuzilma va hududiy qo'llab-quvvatlash. Kichik biznesning rivojlanishi ko'pincha hududdagi infratuzilma holatiga bog'liq.

"Tadbirkorlik zonalari" va "Erkin iqtisodiy zonalar": Bu hududlarda soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari, subsidiyalar taqdim etiladi.

Texnoparklar va innovatsion markazlar orqali texnik yordam va innovatsion texnologiyalar taklif etiladi.

Ta'lim va kadrlar salohiyatini oshirish. Kichik biznes egalari ko'pincha boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish yoki marketing bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmaydi.

Tadbirkorlik maktablari, o'quv kurslari va onlayn treninglar orqali bilimlar berilishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda amaliy mashg'ulotlar va tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Ayollar va yoshlarga alohida imkoniyatlar yaratish. Ayollar va yoshlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Davlat tomonidan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda (masalan, "Ayollar daftari" asosida imtiyozli kreditlar).

Yoshlar uchun inkubator markazlar, startaplar tanlovlari va innovatsion grantlar orqali qo'llab-quvvatlash kuchaytirilyapti.

Eksport salohiyatini kuchaytirish. Kichik biznes mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqish orqali ularning daromad bazasi kengayadi.

"O'zTrade" singari davlat eksport markazlari eksport bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalarni logistika, sertifikatlash va marketing bilan ta'minlamoqda.

"Made in Uzbekistan" brendi ostida kichik korxonalarining mahsulotlari xorijiy ko'rgazmalarda namoyish etilmoqda.

IV.XULOSA

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va tarmoq bo'yicha ixtisoslashuv kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohani rivojlantirish uchun davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va dasturlar samarali bo'lishi kerak. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yondashuvlar kompleks va tizimli bo'lishi lozim. Bu:

- qonunchilikni soddalashtirish,
- moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish,
- raqamli texnologiyalarni joriy qilish,
- infratuzilmani rivojlantirish,
- ta'lim va malakani oshirish,
- ayollar va yoshlarga imtiyozli sharoitlar yaratish kabi omillarni o'z ichiga oladi.

V.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.01.2023 yildagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 39- sonli Qarori

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 6-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya

qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-son Farmoni

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20-noyabrdagi “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab- quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4525- son Qarori

4.Jevons W. S. Richard Cantillon and the Nationality of Political Economy Contemporary Review. Oxford, United Kingdom: The Contemporary Review Company Limited, 1881. P. 333– 360.

5.Steiner P. La théorie de l’entrepreneur chez Jean-Baptiste Say et la tradition Cantillon-Knight. L’Actualité économique. 1997; 73(4) décembre, www.erudit.org [Accessed: May 22, 2021].

6.В.Зомбарт “Буржуа”. М.:Наука, 1994.

7.Шумпетер Йозеф Алоис (1883-1954). Теория экономического развития. Дата обращения: 18 декабря 2021. Архивировано из оригинала 26 декабря 2022 года.

8.O‘lmasov A., Sharifxo‘jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi.-Toshkent. O‘zbekiston 1995y. 171-bet., 192-b.

9.Abdullayev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari.-T.Mehnat. 1997 y. 48-bet.

10.S.S.G‘ulomov. Kichik biznes va tadbirkorlik. Toshkent.Moliya.2002 y.

11.Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari:iqt.fan.dok...diss.T. O‘zMU.2004-276 b.

12.A.A.Xaitov, F.J.Jalolov. O‘zbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirish asoslari.A.1996y. 140-bet.

13.M.M.Xayrullayev, X.Aliqulov. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – T., 1995. – B. 68.

14.O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika boshqarmasi ma’lumotlari

15.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank hisobotlari